



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

THE EFFECTIVENESS OF STATE POLICY AND INSTITUTIONAL MECHANISMS IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP

Muxitdinova Kamola Alisherovna

Professor, Department of Industrial Economics Tashkent State Technical University

Abstract: This paper analyzes the effectiveness of state policy and institutional mechanisms in promoting women’s entrepreneurship in Uzbekistan. The study examines legal reforms, financial support instruments, the “Women’s Register” system, and the activities of women’s entrepreneurship centers using statistical and empirical data. It also evaluates the impact of women’s entrepreneurship on economic growth, employment, and social stability. The findings contribute to assessing the effectiveness of public policy and identifying directions for further improvement.

Keywords: women entrepreneurship, public policy, institutional mechanisms, gender equality, employment, economic growth, Uzbekistan.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNING SAMARADORLIGI

Muxitdinova Kamola Alisherovna

Toshkent davlat texnika universiteti,

Sanoat iqtisodiyoti kafedrasida professori

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosati va institutsional mexanizmlarning samaradorligi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy islohotlar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari, “Ayollar daftari” tizimi hamda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish markazlarining faoliyati statistik va empirik ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, ayollar tadbirkorligining iqtisodiy o‘rni, bandlik va



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

ijtimoiy barqarorlikka ta’siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari davlat siyosatining samaradorligini baholash hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, davlat siyosati, institutsional mexanizmlar, gender tenglik, bandlik, iqtisodiy o‘shish, O‘zbekiston.

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu yo‘nalish mamlakatda inklyuziv iqtisodiy o‘shish modelini shakllantirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy adabiyotlarda ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘shishning multiplikativ omili sifatida talqin qilinib, uning rivojlanishi mehnat bozorida diversifikatsiya va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilishi qayd etilgan [1]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati va institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rsatkich	Qiymat
Ayol tadbirkorlar soni	2,1 mln
Kichik korxonalar soni	43 860
Sof daromad	47,7 trln so‘m
Kreditlar hajmi	6,9 trln so‘m

1-jadval. Ayollar tadbirkorligi ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning huquqiy asoslari izchil ravishda shakllantirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ–562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni gender tenglikni ta’minlashning asosiy huquqiy poydevorini yaratdi [2]. Mazkur qonunning 16-moddasida ayollarning iqtisodiy



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

faoliyatda, jumladan, tadbirkorlik sohasida teng ishtirok etish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[3].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ–4235-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi [4]. Ushbu qaror asosida hududlarda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish markazlari tashkil etildi, kasbiy o‘qitish va biznes ko‘nikmalarini shakllantirish dasturlari yo‘lga qo‘yildi.


Institutsional mexanizmlar tarkibida “Ayollar daftari” tizimi¹ alohida o‘rin tutadi. Mazkur tizim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ–5020-son qarori asosida joriy etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ehtiyojmand xotin-qizlarni aniqlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashdan iborat [5]. Ushbu tizim orqali ayollarga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va kasb-hunar o‘rganish imkoniyatlari taqdim etiladi. Amaliy natijalarga ko‘ra, 2023–2024-yillarda 200 mingdan ortiq ayollar tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilgan va ularga 6 trillion so‘mdan ortiq kredit mablag‘lari ajratilgan [6].

¹ “Ayollar daftari” — bu ehtiyojmand ayollarni aniqlash va manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimidir.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Ayollar tadbirkorligi quyidagi sohalarda jamlangan:



1-rasm. Sohalar faoliyatida ayollar ishtiroki ko‘rsatkichlari.²

Statistik tahlillar ayollar tadbirkorligining barqaror o‘shish dinamikasini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ayollar rahbarligidagi kichik biznes subyektlari soni 43 mingdan ortiqni tashkil etgan, ularning iqtisodiyotdagi ulushi esa izchil o‘shib bormoqda [7]. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligining tarmoq tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular asosan xizmat ko‘rsatish va savdo sohaslarida jamlangan bo‘lib, ushbu ikki sektor umumiy ulushning qariyb 75–80 foizini tashkil etadi [7]. Bu holat ayollar tadbirkorligining sanoat va innovatsion sohalarda yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatadi.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlar ayollar biznesining boshlanish bosqichida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar tadbirkorlar hali ham moliyaviy resurslarga kirishda muayyan to‘siqlarga duch kelmoqda, xususan, garov

² Tadbirkor ayollar ko‘proq qaysi sohada faoliyat olib bormoqda? <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63388-tadbirkor-ajollar-k-pro-ajsi-so-ada-faoliyat-olib-bormo-da-2>



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

ta’minoti va kredit tarixining yetishmasligi muammolari mavjud [8]. Bu esa davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy instrumentlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi. Institutsional infratuzilmaning samaradorligini baholash hududlar kesimida sezilarli farqlar mavjudligini ko’rsatadi. Rivojlangan hududlarda ayollar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash markazlari faoliyati nisbatan samarali bo’lsa, qishloq va chekka hududlarda bu mexanizmlar yetarli darajada ishlamayapti [9]. Bu esa institutsional siyosatda hududiy differensial yondashuvni talab qiladi. Ayollar tadbirkorligining iqtisodiy samaradorligi bandlik ko’rsatkichlari orqali ham yaqqol namoyon bo’ladi. Xususan, mikro va kichik biznes subyektlari orqali yaratilayotgan ish o’rinlarining muhim qismi aynan ayollar tadbirkorligi hissasiga to’g’ri keladi. Bu esa kambag’allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, moliyaviy savodxonlikning past darajasi, biznes yuritish ko’nikmalarining yetishmasligi, ijtimoiy stereotiplar va oilaviy majburiyatlar ayollar iqtisodiy faolligini cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo’lmoqda [1]. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarur. Natijalar shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tizimli va izchil amalga oshirilmoqda hamda u sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Biroq institutsional mexanizmlarning samaradorligi hududlar kesimida notekis bo’lib, bu ularni yanada optimallashtirish zarurligini ko’rsatadi [10]. Shu sababli, kelgusida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish siyosati moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish, ta’lim va konsalting xizmatlarini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kuchaytirilishi lozim. Xulosa quyidagi jadval orqali berishga harakat qilamiz, unda ayollar tadbirkorligi keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy foydalar keltirilgan.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Iqtisodiy samaradorlik	Ijtimoiy samaradorlik
1. YAIM o‘shishiga hissa qo‘shmoqda	4. Kambag‘allik darajasini kamaytiradi
2. Yangi ish o‘rinlari yaratmoqda	5. Ayollar mustaqilligini oshiradi
3. Soliq tushumlarini oshirmoqda	6. Gender tenglikni mustahkamlaydi

2-jadval. Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik me’zonlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. Women’s Entrepreneurship Policies and Data.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘RQ–562-son, 02.09.2019, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni, 28.01.2022, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” (lex.uz).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4235-son qarori, 07.03.2019, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (lex.uz).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5020-son qarori, 05.03.2021, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (lex.uz).
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, rasmiy ma’lumotlar, 2024 (stat.uz).
8. World Bank. Women, Business and the Law – Uzbekistan profile.
9. UNDP. Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan, Analytical Report.
10. ILO. Women’s Entrepreneurship and Employment in Developing Countries.